

**O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA
MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF
SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK AT THE NEW STAGE OF
UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

*Turobova Zulfizar Ulug'bek qizi
Buxoro Davlat Pedagogika Instituti
1- bosqich magistranti*

Annotatsiya. Maqlada yoshlarni ma'naviy ma'rifiy o'sishining metodologik masalalariga bag'ishlanadi.

Hozirgi zamonda ilg'or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog'li yuksaklikka ko'tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog'lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Abstract. The article is devoted to methodological issues of spiritual and educational growth of youth.

Currently, the democratic principles of life in developed countries are also evaluated by how high a person can raise his value. Fundamental changes in our country, the essence of reforms also stem from this principle. In the implementation of this principle, the formation of a new worldview, healthy thinking based on the harmony of national and universal values is of great importance.

Kalit so'zlar. Ma'naviyat, ma'rifat, tarbiya, mazmun, mohiyat, madaniyat, tarbiya, an'analar, qadriyatlar.

Keywords. Spirituality, enlightenment, education, content, essence, culture, upbringing, traditions, values.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim. Bugungi kunda dunyoda globallashuv

jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Shiddatli globallashuv davrida mamlakatimizda bugungi kunda barcha sohalarda ulkan islohotlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan islohotlarning bosh omili inson va uning manfaatlari hisoblanadi. Shu jumladan, ta’lim-tarbiya sohasida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Shu bois dunyo mamlakatlari tomonidan Yangi O‘zbekistonda yoshlarning aqliy, ma’naviy-ma’rifiy va jismoniy kamoloti taraqqiyoti, ularning zamon talablariga mos bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari, iqtidor va qobiliyatlarini namoyon qilishlarii va yanada rivojlantirishlarii uchun yaratilgan imkoniyatlar ko’lamli kengaytirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo’nalishlarni amalga oshirish belgilab berilgan. Ushbu belgilangan vazifalar yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va takomillashtirishning ma’naviy-madaniy asoslarini o’rganish va tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ushbu rivojlanish dasturida ma’naviy boyliklarni tiklash, millatning axloqiy namunasini takomillashtirish va intellektual salohiyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Fuqarolik jamiyati taraqqiyoti jarayonida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar muttasil o’sib borishi ma’naviyatning yuksalishiga ta’sir qiladi. Ma’naviyat rivojlanishi esa ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasi bilan o’zaro bog‘liqdir. O‘zbekistonda ham ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab e’tibor kuchaytirildi. Chunki bugungi yosh avlodning ochiq axborotlashgan jamiyatda yashayotganligi, ayniqsa, ommaviy axborot vositalaridan tarqatilayotgan umumjahon ma’naviy illatlarining ma’naviy bo’shliqqa kirib kelishi yoshlar ongi va dunyoqarshiga salbiy ta’sir ko’rsata boshladi. Uning oldini olish uchun jamiyatni g‘oyaviy, ma’rifiy, axloqiy jihatdan yangilab borish, fikr va dunyoqarashni modernizatsiyalash yo’lga qo’yilishi lozimligi tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to’g‘risida”gi,

2018-yili 16-apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PF-5416-sonli farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo'yicha islohotlar olib borilishida asos bo’lib xizmat qilmoqda.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning zamonaviy davlatchiligidan tarixida katta o‘zgarishlar yaratayotgan Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ilgari surilgan innovatsion g‘oyalar yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Yoshlarni hamkorlikda milliy va zamonaviy ruhda tarbiyalab ularga innovatsion g‘oyalarni singdirish bugungi kunning talabi hisoblanadi. O’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko’tarish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asnoda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda. Ilmiy tadqiqotimiz obyekti xususiyatlaridan kelib chiqib, oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy-pedagogik hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish jarayoni va bu jarayonning mazmuni, shakli va uslublari ilmiy tadqiqotlarda qay darajada aks etgani muhim ahamiyatga ega. Shu bois tadqiq qilinayotgan muammoni asoslash va uning ilmiy yechimini topish maqsadida ta’limtarbiya jarayonida oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy-hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning pedagogik xususiyatlarini, jihatlarini ajratib olib tahlil qilish maqsad qilindi. Avvalo, tahlil qilishni bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlar, ularning bajarilishi va amalga oshirilishidan kelib chiqqan holda tadqiq etish maqsad qilindi. Xususan, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo’shilib qolish, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e’tiborni talab etmoqda. Bugun O’zbekiston Uchinchi renessans ostonasida o’z milliy taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqib oldi. Bu jarayonda milliy ma’naviyatni demokratik prinsiplar asosida dialektik aloqadorlikda takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari, "- degan dasturiy g’oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o’ta sharaflı vazifadir.

Xulosa o'rnilida shuni aytish mumkinki, oilalarda sog'lom ma'naviy, axloqiy muhit hukmron bo'lsa, maktablarimizda ma'naviy tarbiya takomiliga yetsa, kutubxonalarimizdagi navbatlar uzaysa, jamiyatimiz mustahkam bo'ladi, mustahkam jamiyatda esa tinchlik, farovonlik, osoyishtalik va to'kinlikning barqarorligi ta'minlanadi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent. Tasvir, 2020. –B.48.
2. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida” gi qarori PQ-4307-sonli. 03.05.2019.